



FRANSUZ VA O'ZBEK BADIY ASARLARIDA MUOMALA MADANIYATINING LINGVOMADADIIY XUSUSIYATLARI

Mamajonova Muxayyo Maxamadjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrası o'qituvchisi,
PhD mustaqil izlanuvchi

El. Manzili: mamajonovamuxayyo7@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21296180>

Annotatsiya Mazkur maqolada fransuz va o'zbek badiiy asarlarida muomala madaniyati ifodalanishining lingvomadaniy jihatlari tahlil qilinadi. Fransuz va o'zbek badiiy asarlaridan parchalar keltirilib, ushbu parchalardagi muomala madaniyatini ifoda etuvchi til birliklari lingvomadaniy xususiyatlariga, shuningdek fransuz va o'zbek xalqiga xos bo'lgan jixatlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: muomala madaniyati, milliylik, til birliklari, mentalitet, iltifotlilik, muloyimlik, hurmat

Аннотация В данной статье анализируются лингвокультурные аспекты репрезентации культуры общения во французских и узбекских художественных произведениях. На основе фрагментов из французских и узбекских художественных текстов рассматриваются языковые единицы, выражающие культуру общения, их лингвокультурные особенности, а также специфические черты, характерные для французского и узбекского народов.

Ключевые слова: культура общения, национальная специфика, языковые единицы, mentalitet, вежливость, обходительность, уважение

Abstract This article examines the linguocultural aspects of the expression of communication culture in French and Uzbek literary works. Excerpts from French and Uzbek literary texts are presented, and particular attention is paid to the linguocultural characteristics of the linguistic units expressing communication culture in these excerpts, as well as to the distinctive features specific to the French and Uzbek peoples.

Keywords: communication culture, national specificity, linguistic units, mentality, politeness, courtesy, respect.

Kirish Bugungi globallashuv sharoitida turli xalqlar o'rtasidagi madaniy va kommunikativ aloqalarning kengayishi muomala madaniyatini lingvistik hamda lingvomadaniy nuqtai nazardan o'rganish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Til nafaqat axborot almashish vositasi, balki millatning tarixi, qadriyatlari, urf-odatlar va mentalitetini o'zida mujassam etuvchi madaniy hodisadir. Shu sababli





muomala madaniyati ham har bir xalqning milliy dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Muomala madaniyati insonlar o'rtasidagi muloqotning samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u salomlashish, murojaat qilish, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash, iltimos qilish, xayrlashish kabi nutqiy vaziyatlarda ifodalanadi. Mazkur kommunikativ birliklarning qo'llanishi nafaqat til tizimi bilan, balki muayyan xalqning milliy qadriyatlari, madaniy an'analari va mentaliteti bilan ham uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, xushmuomalalik, hurmat va ehtirom kabi tushunchalar fransuz hamda o'zbek xalqlarining muomala madaniyatida o'ziga xos lingvistik vositalar orqali namoyon bo'ladi.

Zamonaviy lingvomadaniyatshunoslik til birliklarini milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqlikda o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu nuqtai nazardan fransuz va o'zbek badiiy asarlarida muomala madaniyatining ifodalanishini qiyosiy tahlil qilish ikki xalqning kommunikativ xulq-atvori, xushmuomalalik me'yorlari, murojaat shakllari hamda hurmatni ifodalovchi til vositalarining umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Badiiy matnlar esa milliy kommunikativ me'yorlarning tabiiy ifodasini aks ettiruvchi muhim lingvistik manba hisoblanadi.

Ma'lumki, fransuz va o'zbek adabiyotida so'z san'atiga azaldan chuqur falsafiy yondashuv asosida yondoshilgan, har ikkala jamiyatda so'z aloqa vositasi vazifasini bajaribgina qolmay, ijtimoiy mavqe, madaniyatlilik belgisi sifatida muhim o'rin egallagab kelgan. Shu sababdan muomala madaniyati fransuz va o'zbek xalqi dunyoqarashining ajralmas qismi, insonning ichki dunyosi, ruhiy olami, madaniy saviyasini namoyon etuvchi ko'rsatgich sifatida shakllangan. Shuningdek, fransuz va o'zbek tafakkuri milliy mentalitet, falsafiy an'analar va badiiy tafakkurni o'zida jamlagan holda fransuz badiiy asarlarida o'z aksini topgan.

Metod. Muomala madaniyati, muloqot madaniyati yer yuzida inson paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan, uning o'rganilishi ham eramizdan avvalgi davrlarga borib taqaladi.

Muomala madaniyati muloqot paytida nutqiy etiket birliklaridan me'yorida va o'rinli foydalanish natijasida namoyon bo'ladi. Shunday qilib muomala madaniyati tarkibiga nutqiy etiketni kiritish mumkin mumkin, biroq ba'zi olimlar etiket muomala madaniyatining zamonaviy ko'rinishi sifatida keltiradilar.¹





Tahlil va natijalar. Jahon adabiyoti durdonalaridan Gi de Mopassanning “Azizim” romanini fransuz muomala madaniyatining bir timsoli sifatida qarash mumkin, unda muomala madaniyatining bir qator elementlari keltirilishi bilan fransuz muomala madaniyati ochib berilgan deyish mumkin, quyidagi ushbu asardan parchani keltirib o‘tamiz:

Tout à coup il s’aperçut qu’elle tenait à la main sa tasse vide ; et, comme elle se trouvait loin d’une table, elle ne savait où la poser. Il s’élança.

– **Permettez, madame.**

– **Merci, monsieur.**

Il emporta la tasse, puis il revint

Shunda u stoldan ancha olisda o‘tirgan Valter xonim qo‘lidagi bo‘shagan chinni idishni qayerga qo‘yishini bilmay turganligini ko‘rib qoldi. Dyurua shahdam uning qoshiga yurib bordi:

- **Ijizat eting, xonim.**

- **Tashakkur.**

Dyurua idishni oborib qo‘yib, yana xonimning huzuriga qaytdi.

Ushbu keltirilgan dialog asar bosh qahramoni Jorj Dyura va Valter honimlar suhbatidan olingan ijtimoiy muloqot va munosabatlar boshlanishidagi suhbatdan bo‘lib, muomala madaniyatini har ikki suhbatdosh ham yuksak darajada namoyon etish sahnasi ko‘rinadi. Parchani lingvomadaniy tahlil qilamiz: **“Permettez, madame” (Ijizat eting, xonim.)** va **“Merci, monsieur” (Tashakkur)** kabi muomala madaniyatini ifoda etuvchi til birliklari fransuz nutqiy etiketida odob, hurmat, ijtimoiy masofa va axloqiy qadriyatlarni ham anglatadi. Parchada **“Permettez, madame” (Ijizat eting, xonim)** va **“Merci, monsieur” (Tashakkur)** kabi qisqa, ammo madaniy jihatdan yuklangan ifodalar mavjud. Dyura va Valter honim suhbat qurayotgan jarayonda Dyuraninig yordam taklif qilishi muloqotdagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi, ayniqsa erkak kishining ayol kishiga hurmat, nazokat va e‘tiborli tarzda muomalaga kirishishi fransuz muomala madaniyatining asosiy jixatlaridan hisoblanadi. Shuningdek, ushbu sahnada verbal va noverbal muomalaning bir-birini to‘ldirgan holda namoyon bo‘lganligi ***Il s’élança (shahdam uning qoshiga yurib bordi)*** jumlasida e‘tibor na‘munasi sifatida e‘tirof etish mumkin. Xonimning esa unga javoban iltifotli, muloyim va masofa saqlagan holda **“Merci, monsieur »** muomala qilishi fransuz ayollariga hoslikdir. Demak, bu qisqa dialogda **“verbal »** (so‘z) va **“noverbal »** (harakat) birlashuvini ifoda etgan ushbu ikki muhim element madaniylikni anglatadi. Bu suhbat orqali hurmat va noziklikni anglatuvchi birlik vositasida adabiy etik normalarning aks ettirilishi, gender munosabatlari – erkak yordamchi





sifatidagi vazifasi, ayolning esa noziklik ifodasi, jamiyatdagi muomala mezonlari rasmiy va mulozamatli tarzda fransuz madaniy qadriyatlarini chuqur ifoda etilgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ushbu dialog samimiyatga boy, nutqiy birliklar neytral tarzda fransuz muomala madaniyatining ijobiy sifatlarini namoyon etadi, xullas fransuz muomalasi odob madelining ko'rinishidir.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida muomala madaniyati birliklarining tahlil qilinishi o'zbek muomala madaniyatini ochishga, milliy qadriyatlar, millat ruhini til vositasida qay tarzda ifodalanishini anglashga imkon beradi. Zero, tilshunos olim Vilgelm fon Gumbold ta'kidlaganidek "Til xalqlar ruhining huddi zohiriy namoyon bo'lishidir: xalqning tili uning ruhidir va xalqning ruhi uning tilidir, bulardan-da bir-biriga mos boshqa narsani tasavvur qilib bo'lmaydi"², bir millatning tili butun xalq madaniyatini, odob-axloqi va dunyoqarashini namoyon etadi.

Yuqoridagi fikrlarning uzviy davomi sifatida S.G.Ter-Minasovanning fikrlarini keltirish mumkin: "til – madaniyat ko'zgusi, unda xalqning o'z-o'zini ijtimoiy anglashi, uning mentaliteti, milliyligi hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqiy me'yorlari, qadriyatlari tizimi, dunyoqarashi, olamga munosabati aks etadi".³

Quyida muomala madaniyatining muhim elementi hisoblangan xayrlashish birliklarining o'zbek muloqotida qanday ifodalanishi "O'tkan kunlar" asari misolida tahlil qilinadi:

— *Xudoyg'a topshirdim, Kumush, qazom yetib ko'ralmay o'lsam, **mandan rozi bo'!***

— *Siz ham, oyi!..*

Qutidor ham ko'chadan yo'lakka kirib qizining manglayidan o'pdi:

— **Ko'rishkuncha, qizim.**

— **Xayr, otajon.** [343b.]

Keltirilgan ushbu parcha o'zbek oilaviy muloqotida duo qilish, rozi-rizolik, mehr yetakchi ekanligini ko'rsatadi. *Xudoyg'a topshirdim, mandan rozi bo'l* iboralari o'z taqdirini Xudoga topshirish va o'lim haqligini yaqinlar o'rtasida muloyimlik bilan eslatish va islomiy muomala madaniyatda ota-onaning farzanddan, farzandning ota-onadan roziligi muhimligi nuqtai nazaridan juda keng qo'llaniladi. Qizning "*Siz ham, oyi!..*" javobi rozilik so'rash va "Oyi" deb mehr va hurmat qilinishi kuzatilmoqda. Otaning esa "Ko'rishguncha, qizim" qayta ko'rishishga umid bog'lash, manlayidan o'pish taqdirning shundayligiga ishora tarzida tushunish mumkin. "Xayr" markeri xayr va yaxshilik tilash ma'nosini,

² Гумбольд В. Избранные труды по языкознанию. – М. Прогресс, 1984. – с. 68 Бу ҳақда қаранг: Маҳмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент мумтоз сўз, 2017. – 576.

³ Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. - М.: Слово, 2000. 14 с.





“otajon” murojaati mehr, hurmat, yaqinlik, iltifot ko‘rsatgichi sifatida qo‘llaniladi. Ko‘rinadiki, ushbu parcha o‘zbek muomala madaniyatini uch ustuni: diniy-ma’naviy kodlar, oila va mehr ierarxiyasi va xayrlashishning nozik duoga yo‘g‘irilgan shaklini ifoda etmoqda.

Xulosa. Dunyo xalqlari mentaliteti turlicha bo‘lib, har bir xalqning milliyligi va mentaliteti o‘z tilida aks etadi, shu bois mentalitetni o‘rganish muhim hisoblanadi. Fransuz va o‘zbek xalqlari tili, madaniyati va muomala madaniyatini to‘laqonli tushunish uchun ham fransuz va o‘zbek mentalitetlarini chuqur o‘rganish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati. – Toshkent, 2009. – 118 b.
2. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 68.
3. Маҳмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – 57 б.
4. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – 14 с.
5. Maupassant G. Bel-Ami. – Paris: Le Livre de Poche, 2008.
6. Mopassan G. Azizim. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
7. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2019.

